- xasharchilarni tashishda 2 tadan ortiq avtobusni xarakat xavfsizligi xodimi va AS, ATK ning ma'sul xodimi (avtosafni) kuzatib borishi;
- yo'lovchilar tomonidan qurol, narkotik moddalar, zaharli va yonuvchi yuklarni va boshqa o'rnatilgan qoidalarda man etilgan yuk va bagajlarni tashilishi;
- haydovchilar tomonidan tezlik rejimini oshirmasligi yo'l-harakat qoidalariga qat'iy an itoat etilishini tasdiqlangan yoki belgilangan yo'nalishlarda harakat jadvali asosida xarakatlanishni va boshqa ya'ni 25.04.97y. "Shahar yo'lovchi transporti to'g'risida"gi va «Yo'l xarakat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 4.11.03y. №482 sonli "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini "hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarini tasdiqlash" xaqidagi qarorida belgilangan qoidalarni bajarilishini;
- avtomobil transportida yo'lovchilarni tashishda mehnat muhofazasiga bag'ishlangan.

Mehnat va axolini ijtimoiy ximoya qilish vazirligining 18.12.2001y dagi №194 buyrug'ini bajarilishini va boshqa qonun-qoidalarda, me'yoriy xujjatlarda belgilangan talablarni bajarilishi, barcha rahbar-ma'sul xodimlar va haydovchilar tomonidan yo'lovchilarni tashishda qo'llanilishi shart.

- Avtobuslarning oldi va orqa peshoynalarida "Bolalar" va "xasharchilar", yoki "yordamchilar" degan yozuvlar bo'lishi kerak. Ayrim xollarda yuk avtomobillarida ham yo'lovchilar (yordamchilar soldatlar) tashiladi. Bunday tashishlarga qo'yilgan talablar;

- haydovchining staji (ishlagan davri) 3 yildan kam bo'lmasligi kerak;

- yo'nalishini oldindan o'rganib chiqishi;

- ishga chiqishdan oldin haydovchi bilan qo'shimcha yo'riqnoma o'tkazilishi;

- avtomobil kuzovida yog'ochdan yasalgan (eshaklar) o'rindiqlar bo'lishi, ular kuzov bortidan 15 sm past bo'lishi, 30 smdan kam bo'lmagan suyanchiqli bo'lishi;

- yo'lovchilar tikka turib ketmasliklarini oldini olish uchun faqat o'rindiqlar soniga qarab odamlarni chiqarilishi (1.5 -9ta odam; 2 -16 ta; 2.5 -3 -20 ta; 3.5-4.5 -24; 5-7-30 ta; 7 tonnadan oshiq avtomobillarda -36 odam tashishi mumkin);

Ilgari yuk va yo'lovchi tashuvchi (gruzopassajirskie) GAZ-51, GAZ-52, GAZ-53, GAZ-66 avtomobillar kuzovlarining yon tomonlarida tepaga yig'iladigan yog'och o'rindiqlar bo'lar edi. Respublikaning tog'li tumanlarida, Dexqonobod tumanida (Qashqadaryo viloyati) GAZ-66 yo'lovchi va yuklarni tashishga moslashgan avtomobillari ishlar edi.

- chiqish va tushish uchun zinapoya-narvoncha bo'lishi;

- kuzov ustida tentlar va chiroqlar bo'lishi;

- bortlarni yopish kryuklari qo'shimcha ravishda ochilib ketmasligini oldini olish uchun yumshoq po'lat simlar bilan bog'langan bo'lishi shart.

- haydovchilarni umuman yengil oyoq kiyimlarida -tapochkalarida ayollarni baland poshnali tuflilarda tormoz pedalini to'liq bosishiga yo'l qo'ymaydi. Ishlash ham man etiladi, chunki yoz mavsumlarida tormoz pedali qizib ketadi. Shu sababli ayrim xollarda haydovchi pedalni bosa olmay qolib avariya qilib qo'ygan voqyealar ham bo'lgan, bu esa ko'plab yo'lovchilarni shikastlanishiga olib kelgan. Yuqorida qayd etib o'tilgan qonun, qaror va me'yoriy xujjatlarda yo'lovchi

tashuvchilarga (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) yo'lovchilarni tashishda atrof muxitni saqlash, harakat va mehnat xavfsizligini ta'minlash, hamda yuklar miqdorini, sifatini buzmaslikka, yo'lovchilarning sog'lig'iga, xayotiga putur yetkazmasdan tashishlarni tashkil etish vazifalari yuklatilgan. Bu masala O'zbekiston Davlat standartlarida ham o'z ifodasini topgan.

Xuddi shularga o'xshash talablar yo'lovchilar oldiga ham qo'yilgan:

-mast xolda avtomobillarga chiqish;

-iflos libos-kiyimlar bilan, boshqa yo'lovchilarga zarar yetkazadigan qo'l bagaji bilan

avtobus salonlariga, yengil avtomobillariga chiqishlari (minishlari) man etiladi. Bulardan tashqari o'q-dori, qurollar, portlovchi shunga o'xshash xavfli yonuvchi moddalarni narkotik va boshqa yuklarni tashish man etiladi.

Yuklarni tashish qoidalar

Bu yerda birinchi navbatda yuklarni yuklash va tushirishda mehnat muhofazasi-mehnat xavfsizligini ta'minlashda ularning maydonchalari, mexanizmlarining texnik xolati, yuklovchilarning mehnat faoliyati (stropolshik, takelajchilar mahorati) asosiy o'rin egallaydi. Yuklash va tushirish maydonchalarining o'lchami avtomobillar xarakatiga, soniga va ishlarning unumdorlik bilan bajarilishiga mos kelishi kerak.

Masalan o'ziag'darar mashinalar sonini aniqlash yuk ortadigan eskavator yoki to'kiladigan yuklarni yuklaydigan "Pogruzchik"larning cho'michining xajmiga va yuklash vaqtiga qarab aniqlanadi.

Kirish yo'llari qattiq qoplama bilan qoplangan yoki tekislanib buldozor bilan zichlangan bo'lishi, yozda chang paytlarda (korerlarda) yo'llarga vaqti-vaqti bilan suv sepilib turilishi kerak. Yo'llarning kengligi 6.2 metr ikki tomonlama xarakatda, 3.5 metr bir tomonli xarakatda, yuklash vaqtida avtomobillar orasi 1.5 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Tushirish vaqtida binolar yoki trotuarlar orasi 0.5 to'xtatish bruslar albatta bo'lishi shart. Bular avtomobilning orqa g'ildiragini to'xtatib qoladi. Xarakatni boshqarish umumiy qabul qilingan belgi va ko'rsatkichlar bilan amalga oshiriladi.

Ushbu talablarni ATK, xodimlari maydonchalarni tayyorligini tekshirib, xamma talablar bajarilgandan keyin avtomobillarni yuk beruvchi va yuk oluvchi mijozlariga yuboradi. Tayyorgarlik ko'rishda O'zbekiston Respublikasining mehnat va aholini ijtimoiy ximoyalash vazirligining yuklarni avtotransport vositalarida tashishga bag'ishlangan 16.10.02y 158 sonli buyrug'ini bajarilishini inobatga olmoq lozim. Agarda haydovchi va yukni kuzatib boruvchi, yuklovchi, tushiruvchi shaxslar xavfli vaziyatga tushib qolsa, (kuzovda joy bo'lmasa), maydonchalarda yo'llarni buzilishi, yuklash-tushirish mexanizmlari mehnat xavfsizligiga mos kelmay qolsa, xaydovchi ishini to'xtatib ATK ga xabar qiladi, agar buni iloji bo'lmasa (xizmat safarida bo'lsa) yuk beruvchi yoki oluvchini ogoxlantirib tashishni to'xtatadi. Kechqurunlari maydonchalari yoritilgan bo'lishi kerak. Xaydovchi kechasi harakat qilganda extiyotchoralarni ko'rish kerak. Bular xarakat xavfsizligi qoidalarida yozilgan, agarda qattiq tuman bo'lsa (BUT trassasi kuz paytlarida) qor va yomg'ir yog'sa xaydovchi xarakatini to'xtatib yo'lni o'ng

chekkasiga chiqib qizil chiroqlarni yoki 20 metr narida olov yoqib orqadagi xaydovchilarga signal berib turishi shart.

Avtomobillarga tirkama (pritsep) ulanganda ham ehtiyotkorlik choralarini ko'rish kerak. Tirkamani ulashda haydovchi, ulovchi va signal beruvchi ishchilar qatnashishlari lozim.

(ayniqsa katta avtopoezdlarda Mercedes-Bens, MAZ, KAMAZ avtomobillariga yarim tirkamalarni ulashda) Ikki yoki bir o'qli tirkamalarni haydovchining o'zi ham ulashi mumkin.

Bu avtomobil g'ildiraklari tagiga to'sg'ich-bashmaklar qo'yiladi. 2-o'qli tirkamalarni dishlosi va avtomobil kryuki sinib ketsa tirkama boshqa yoqqa o'zi yurib kelib avariya sodir etilishi mumkin, buni oldini olish maqsadida avtomobil ramasiga tirkamaning buriluvchi qismi bilan temir arqon- trosalar bog'lab qo'yiladi. Yana dishlolar 90⁰li qilib ulanmaydi, balki uning kryuk ulangan joyi past tomonga qiyshiroq qilib ulanadi, bu esa urilgan kuchni kamaytiradi. Buni materiallar qarshiligi fanidan bilasizlar. Yuklar ayniqsa to'kiluvchanlari kuzovlar (tirkamalarga ham) kuzov o'rtasiga yuklanishi lozim va bunda orqa ko'priklarga (o'qlarga) katta kuch (yuk) kelmasligi ta'minlanadi. Shuning uchun yuk yuklashda xaydovchi avtomobildan 5 m narida turib, nazorat qilib turishi lozim.

O'zi ag'darar avtomobillarning ishlariga ham mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablar qo'yilgan. Ular quyidagilar:

- yuklarni ariq, chuqurliklarga ularni chekkasiga kelib tushirish (misollar "Qamchiq" davonida avtomobillarning chuqurlarga ag'darilib ketish hollari yuz bergan) agarda orqa g'ildiraklarni to'xtatib qoladigan to'siqlar bo'lmasa yoki maxsus odam nazorat qilib turmasa yuklarni ag'darish man etiladi., man etiladi.

- kuzov ko'tarilgan vaqtda uning tagida turish, maxsus tayanch orqali kuzovni tirab qo'yib tuzatish shart;

- qiyaliklarga yuklarni tushirishda 1 metrdan kam masofaga kelib to'kish. (brus bo'lmasa);

Avtomobillar tog'li yerlarda ishlatilsa quyidagilar amalga oshiriladi:

- haydovchilar bilan qayta yo'riqnoma o'tkaziladi;

- ularni trassa bilan shaxsan tanishtiriladi;

- tayanchiq, bashmak (g'ildiraklarni ushlab turuvchi to'siqlar), shatakka olish uchun qattiq ulangich (ssepka)lar bilan butlangan bo'lishi shart.

Tog'lardan tushishda uzatma qutisining past pog'analarida tushishi kerak.

Yumshoq ulangich (ssepka) -4-6 metr, qattiq ulangich 4 metr bo'lishi kerak.

Avtomobillarni tog'li yo'llarda shatakka olganda ulangichlardan tashqari avtomobillarni ramalari yumshoq po'lat, tros, kanat yoki zanjirlar bilan ulangan bo'lishi lozim.

Yuklarning kategoriya va sinflarga bo'linishini ta'minlash

Avtomobillarda tashish texnologiyasi o'z ichiga yuklash, tashish va tushirish ishlarini qamrab oladi. Yuklar og'irliklari bo'yicha 3 kategoriyaga bo'linadi. (yuklar solishtirma og'irliklari yoki yuk ko'tarish qoidalari bo'yicha 4 sinfga $\gamma = 1-0.4$ gacha bo'linadi

1. Bittalik yuklar og'irligi 80 kg bo'lgan bitta joyni egallaydigan yakka yuklar, hamda to'kiladigan, kichik bo'lakli, qalashtirib yuklanadigan yuklar.
2. Og'irligi 80-500 kg bo'lgan yakka bo'lakli yuklar.
3. Og'irligi 500 kg ortiq bo'lgan yakka yuklar.

Yuklarning o'lchovi va turlari bo'yicha sinflanishi:

1. Gabaritli emas.
2. uzun o'lchovli.
3. katta massali.
4. kichik massali.
5. antisanitar.
6. oziq-ovqatlar.
7. gaz aynitadigan.
8. xavfli yuklarga bo'linadi.


Xavfli bo'yicha yuklar 7 ta guruhga bo'linadi:

- kam xavfli (qurilish materiallari, umumiy foydalanish tovarlari, oziq-vqatlar, poliz maxsulotlari);
- yengil yonadigan materiallar (benzin, kerosin, ligroin, neft, kinoplenka, spirt va boshqalar);
- yonuvchi va tutovchi materiallar (sement oxaq-asfalt, mineral o'g'itlar va boshqalar);
- o'z o'lchamlari bo'yicha xavfli yuklar;
- kuydiruvchi suyuqliklar (kislotalar, ishqorlar);
- qisilgan va suyultirilgan gaz ballonlari (kislorod, azot, metan, propan – butan va boshqalar)
- alohida xavfli yuklar (portlovchi moddalar, zaxarlovchi gazlar va boshqalar)

Yuklar yuklash va tushirish bo'yicha 3 guruhga bo'linadi.

- bittali (qurilish materiallari va x.k)
- ustma-ustli – (qalashtirilgan)
- quyiladigan (наливочные)

Xavfli yuklarni tashishda qo'llanadigan xalqaro axborot jadvali



690

Ilova: O'lchamlari mm-larda. Bunday tablichkalar yonilg'i, gazlarning barcha turlarini tashishda ham qo'llaniladi. Oldi bamporning o'ng tomoning tepa qismiga qotiriladi.

Xavfli bo'yicha 7 ta guruhga bo'linuvchi yuklarni yuklash va tushirishda xavfsizlikni ta'minlash.

1-gurux yuklari Har xil tugun va yashiklarda jumladan yakka yuklar kuzovga yaxshi zichlagan holda joylashtirilishi lozim. Oraliqlar qolganda ularga xar xil yog'ochdan prokladka yoki ajratuvchilar qo'yishi kerak. Yuklarni balandligi 3.8 metrdan oshmasligi lozim. Yuklarni kuzovga arqon, trosslar, mixlar yoki boshqa narsalar bilan qotiriladi.

Suyuqlik idishlarining probkalari yuqorida bo'lishi kerak. qo'l bilan yuklaganda yuklarning qatorlangan balandligi 3 metr, mexanizmlar bilan yuklaganda 6 metr bo'lishi lozim. Aylanadigan bochkali yuklarini orqa bilan ko'tarish uning og'irligidan qa'tiy nazar man etiladi. Yuklar agarda yuklash mashinasigacha 25 metr masofada bo'lsa qo'lda tashib yuklash mumkin, oshiq bo'lsa mexanizmlar orqali yuklash lozim.

2-gurux yuklarini faqat mexanizmlar orqali yuklanadi va tushiriladi trubaprovodlar orqali transportirovka qilinadi. (masalan neftni, gazlarni trubalarda Angrenga neftni transportirovka qilish, xonalarga, qozonxonalarga ham gazlar trubaprovod orqali yuboriladi).

ABS lardan EMM tashilganda avtomobil ramasini yerga zanjir orqali ulanadi-statik tok yerga o'tib ketadi, chunki yonilg'ilar ishqalaganda statik tok paydo bo'ladi. Ularni AYoQSh larga to'kishda qabul qilishning boshida " o't zatvori" ya'ni mis to'r ustiga toza shag'al bilan to'ldirilgan yashik orqali yonilg'i sisternalarga quyilishi kerak.

3-gurux yuklarini ham mexanizmlar orqali yuklanadi va tushiriladi. Yuklovchi, tushiruvchi ishchilar va haydovchilar chang o'tmaydigan ko'zoynaklarda va respiratorlarda hamda maxsus kiyimlarda bo'lishlari kerak. Yukni ustini berkitish kerak. Agar iloji bo'lmasa suv sepib qo'yilishi lozim. (qum, tuproq tashilganda)

4-gurux yuklarini bu yuklarni faqat qo'lda kamida 2 ta ishchi yuklaydi, tushiradi agar ozgina kamchilik topilsa, ishlar to'xtatilib u tez bartaraf qilinadi. Butilkalarda yoki boshqa sinuvchi idishlarda suyuqlik materiallari yashiklari kigiz va boshqa yumshoq material bilan qoplangan bo'lishi shart. Kuydiradigan butilkadagi yuklarni orqa bilan yoki yelkada va oldida ko'tarish man etiladi.

Butikalar kuzovda vertikal ravishda qo'yilib, orasi yaqin bo'lmasligi lozim. 4-gurux yuklarni omborlardan olib kelib yuklashda, yoki tushirishda, zanbillar, aravachalar ishlatilishi ham mumkin. Avtomobillar yuklar bilan yo'lga chiqishlaridan oldin yana bir ko'rikdan o'tkazilib chiqariladi. Bochkalar, barabanlar va yashiklarni o'ta yemiradigan moddalar suyultirilgan azot faqat maxsus avtomobillarda tashishlari lozim.

5-gurux yuklarini yuklash va tushirish mexanizmlar yoki qo'l kuchi bilan bajarilishi mumkin. Yuklar yog'och yashiklar, konteyner yoki paketlangan, gaz balonlari vertikal xolda yuklanadi va balonlarga rezinadan qilingan tasmalar kiygizilib qo'yiladi. (Bir-biri bilan qattiq urilib ketib, shikastlanmasligi uchun) 5 gurux yuklarni yuklash, tashishda, tushirishda maxsus avtomobillar qo'llanishi ham mumkin. (propan-butan gazlarini aholiga tarqatishda va h. k). Kislorod ballonlari bilan atsetilin balloni bilan (gaz bo'lmagan taqdirda ham) tashish man etiladi.

6-gurux yuklari gabaritlari uzun temir-beton balkalari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu yuklar avtomobillarning yon bortlari olingan xolda tashiladi, lekin ularni ushlab turadigan tirkamalar bo'lishi shart.

Ayrim xollarda ayniqsa yog'och balkalar yuklashni, tushirishni tezlatish uchun paketlangan-bir biri bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Uzun va kalta yuklar yuklansa kaltalari tepaga yuklanadi. Bu gurux yuklar ham mexanizatsiya yoki qo'l kuchi bilan yuklanishi mumkin. Xavfsizlikni ta'minlash uchun uzun yuklar tashilganda gararit ogohlantirish ko'rsatkichlari oldi qanotlar ustiga yoki bamperga, orqa tomondan ham qo'yiladi.

Agar yuklar avtomobil kuzovidan 2 m ortib chiqib qolsa, unda tirkama rospusk (1-o'qli) yoki yarim tirkamalar qo'llaniladi. Bunda avtopoezdlar uzunligi 24 metrdan oshmasligi kerak (eski qoida) yuk ustida yoki yonida odamlarni (ekspeditor bo'lsa ham) tashish man etiladi. Bunday yuklar ilgaridan kelishilgan yo'nalishlar orqali asosan tungi paytlarda tashiladi.

7-gurux yuklarini faqat qo'lda ishchilar yuklaydilar va tushiradilar. Bunda ishchilar albatta texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomadan o'tadilar va alohida daftarga imzo chekadilar.

Bu yuklarni tashishda tezlik cheklangan bo'lib, yo'l xolati xam inobatga olinadi.

Ekspeditor yoki boshqa yuk egasi (ishchi) faqat kabinadi, haydovchi oldida o'tirishi lozim. Portlovchi, radioaktiv, qattiq ta'sir etuvchi, zaharli, yengil yonuvchi va boshqa xavfli yuklar hamda barcha zahardan tozalanuvchi idishlar (taralar) alohida tartib va qoidalar bo'yicha tashiladi. (masalan qishloq xo'jaligida ishlatiladigan zaharli moddalar va boshqa qishloq xo'jaligida ishlatiladigan modda va materiallar)

Siqilgan, suyultirilgan va bosim ostida eritilgan gazlar germetik yopiq idishlarda sisternalarda tashiladi. Yuk beruvchi bu idishlarga o'z tamg'asini qo'yadi. Suyuq metan, etan, va metan aralashmasi, etilen va ko'mir angidridi faqat sisternalarda tashiladi.

Kislород ballonlari tashilganda. avtomobilda o't o'chirg'ich, signal bayroqchalari ham bo'lishi shart. Bizning respublika agrar sanoati rivojlanayotgan respublika bo'lgani uchun tashilayotgan yuklarning ko'pchiligini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil etadi. Tashishlar xajmi mavsum davomida o'zgarib turadi. Mavsum davrida g'alla va paxta yig'imi qisqa muddatlarda o'tkazilishi tufayli ko'plab avtomobillar ayniqsa shahar avtokorxonalari ham jalb etiladi. Haydovchilar xizmat safarlariga yuboriladi. Haydovchilar o'z avtokorxonalaridan uzoqda bo'lganliklari sababli xarakat xavfsizligini va mehnat muxofazasini ta'minlash bo'yicha avtokorxonalarda qo'shimcha tadbirlar o'tkaziladi.

Yuklarni yuklash va tushirishda mexanizmlarini ishlatishda texnika xavfsizligi

Tashishlar jarayoni texnologiyasi yuk ortish va tushirishlardan iborat bo'lganligi uchun yuk ko'taruvchi mexanizmlarning mehnat muhofazasi alohida o'rin egallaydi. Yuk ko'tarish mexanizmlari (kranlar, pogruzchiklar, telferlar, tallar va b.) ishlatilganda alohida qoida va yo'riqnomalar bajarilishi lozim.

Yuk ko'taruvchi mexanizmlarning yuk ko'tarishi va gabariti (tashqi) o'lchamlari standartlashtirilgan.

yerdan boshqariladigan kranlarning xarakati tezligi 50m/min ularning aravachalari (telejkalari) tezligi -32m/min dan oshmasligi kerak. Kranlarning eng xavfli qismlari yuk ko'tarish strelasi, kanatlari, vintlari uzilib, sinib yoki vint, gaykalari katta yemirilib ketsa hamda tormozi ishlamay qolsa baxtsiz xodisalarga olib keladi. Shuning uchun strelalarga, tros-kanatlarga kranlarni ishlab chiqargan zavodlar tomonidan sertifikatlar beriladi. Kran pasportida strelani payvandlab (svarka) qilgan shaxsining ismi-sharifi ham ko'rsatiladi. ATK larda yerdan boshqariladigan elektr telforlarda ko'tarilishni maksimallashtirishni cheklovchi mikroviklyuchatellar bo'lishi shart.

ATK va servis markazlarida yengil avtomobillarni ko'tarishda ishlatiladigan elektrmexanik ko'targichlarda yurgizuvchi vint bilan bronzadan tayyorlangan gayka orasidagi oraliq 0.7-0.9mm dan oshib ketsa xavfli hisoblanadi, shuning uchun ularning yon stoykalarini avtomobil ko'tarilgandan keyin fiksirlash lozim. (teshib unga yumaloq to'sqich kiygizib qo'yiladi).

Po'lat kanatlar (arg'amchilar) strelaga ishlatilgan metallar tanlashda ularning mustaxkamlik zaxira ko'rsatkichi 6-9 martadan kam bo'lmasligi kerak. Liftlarda qo'llanadigan kanatlar uchun 9 gacha hisoblanadi.

Po'lat kanatlarning mustaxkamligi $P/S > R$

P-uzish kuchi kg;

S-kanatlar simchalarining eng katta tortilishi kg;

R –mustaxkamlik zahirasi ko'effitsienti.

Barcha yuk ko'tarish mexanizmlari ishga tushirishidan oldin sinovdan o'tkazilishi texnikoviy (osvidetelstvo) lozim.

Ishlab turgan ko'tarish mexanizmlari 12 oyda 1 martadan kam bo'lmagan xolda davriy sinovdan o'tkazilib turilishi lozim. (garajlarda ishlatiladiganlari xar yili) To'liq sinovdan o'tkazish 3 yilda 1 marta o'tkaziladi. Bunda asosan kranlar tashqi ko'rikdan o'tkaziladi va statistik va dinamik ravishda sinaladi. Ko'rikda, blokirovkalar, tormoz ogoxlantiruvchi tizimlar tekshiriladi. Statistik sinovda yuk 25% nominal yuk ko'tarishidan ko'proq bo'lib 200-300 mm ga ko'tarib 10 min ushlab turiladi va qoldiq deformatsiya yo'qligi tekshiriladi. Dinamik sinovda yuk 10% oshirilib, 100-200mmga ko'tarib tushiriladi. Sinov yakunlarini kran pasportiga yoki sinov daftoriga yozib qo'yiladi, hamda kelajak sinov muddatini ham belgilanadi, (ATK, ATZ, servislarda elektr telforlar osilib turadi). Bundan tashqari yuk ko'tarish idishlari, yukni ushlab ko'tarish anjomlari traversalari, strop kanatlari kamida 1 oyda bir marta davriy ko'rikdan o'tkazilib turiladi. Kundalik kuruvdan o'tkazish kran haydovchisi-ishlovchisi, takelaj va stropolshiklar tomonidan

o'tkaziladi. Agarda troslarda yoki strelada ayrim po'lat simlar uzilgan bo'lsa, yorilgan (yirtilgan) joylari aniqlansa ish to'xtatiladi. Uzilgan tros kanatlar faqat yangisiga almashtiriladi, uni ta'mirlab bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Respublika mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyoti kirib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida mulkchilik shaklini o'zgartirib bormoqda, avtomobillar xizmati bozorida ham raqobat kuchayib bormoqda. Xozirda yo'lovchilarni asosiy qismini ayniqsa shaharlararo qatnovlarda shaxsiy xaydovchilar bajarmoqdalar.

Yuklarni ayniqsa qurilish materiallarini tashishni shaxsiy avtomobillar bajarmoqda. Yengil avtomobillarda yo'lovchilarni tashishda shaxsiylar ustun kelmoqda. Xozirgi kunda 45 mingdan ortiq har xil rusumli, har xil yuk avtomobillari shaxsiylar qo'lida IJ 2715 dan tartib benzin, beton tashuvchi, kran va boshqa maxsus avtomobillarning ko'pchiligi shaxsiylar qo'lida.

Yo'lovchi tashish bo'yicha 5.5 mingdan ortiq katta shaharlararo qatnov avtobuslari 19 mingga yaqin mikroavtobuslar va 1 mlndan ortiq yengil avtomobillar shaxsiylar qo'lida. Ko'plab puldor shaxslar yuk avtomobillari, avtobuslar va yengil avtomobillar egasi bo'lib boshqa fuqarolarga ijaraga berib qo'yanlar. Ayrimlari avtomobillar iqtisodiy tomondan (albatta katta sof foyda bilan) o'zini qoplagandan keyin ijarachilarga kelishilgan narxlarda sotmoqdalar.

Shu sababli ijarachilar tezlikni oshirib, vaqtida dam olmasdan, yo'l-xarakat xavfsizligi qoidalarini buzib, tibbiy ko'rikdan, avtomobillari esa texnik nazoratdan o'tkazilmasdan ishlab, ko'p avariylarni sodir etmoqda.

Bekat, boshbekat va shox bekatlarga texnika xavfsizligi talablari

1. Bekatlar oralig'i 450-500m.
2. Ayvon va yuk iluvchi moslamalar.
3. Yo'nalish xarakati jadvali (xarakat oralig'i)
4. Yo'nalishda xarakat boshlanishi va tugashi
5. Yo'lovchilar chiqib tushishlari uchun maydonchalar avtobus eshik zinapoyalariga teng bo'lishi.
6. Yo'nalishlarni ko'rsatuvchi belgilar .
7. Kafe, oshxona, mehmonxona xonasi, maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari, shaharlararo aloqa telefoni (avtoshoxbekatlar uchun)
8. Nogiron odamlar va yosh bolalar aravachalari uchun maxsus qurilgan tekis yo'lka (bekatlarda ham), afsuski bunaqa yo'lka Toshkent shoxbekatida mavjud xolos.
9. Radio – tele axboroti, (yo'lovchilar uchun).
10. Tibbiy punkt.
11. Nozimxonalarda , shox va boshbekatlarda xaydovchilar va yo'lovchilarga sharoitlar yaratish yo'l-xarakat va texnika xavfsizligini ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi.
12. Bolali onalar xonasi.

Yuklarni yuklash va tushirishda xaydovchilarning texnika xavfsizligi bo'yicha vazifalari

Yuklarni (50 kg ortig'ini) yuklash – tushirish mexanizmlar orqali yuk beruvchi, yuk qabul qiluvchilar maydonlarida ular tomonidan belgilangan ma'sul xodimlar boshchiligida bajariladi. Xaydovchi faqat 5 metrdan kam bo'lmagan masofadan turib yuklarning avtomobilga joylashishini to'kiluvchi yuklarni yuklaganda ham, nazorat qilib turadi.

Avtomobil krani tekis joyga o'rnatiladi, chunki yuk ko'targanda yuk avtomobil kabinasi ustidan yuk ko'tarishda yukni chapga-o'ngga xarakat qildirish va yukni yerda sudrash ham man etiladi.

Avtoyuklovchilarda yuklash-tushirishda yuklar uning panshasining kengligiga oldiga yoki chekkasiga chiqib panshasining 1/3 qismigacha bo'lishi mumkin.

Konteynerlarni yuklashda katta "kozlovoy kranlar" qo'llaniladi. Ularning yuklash va tushirish jarayonlarini faqat yuk beruvchi va yuk qabul qiluvchilar bajaradilar. Avtomobil kabinasida bo'lish, ko'tarilgan konteynerlar yoki "strela" tagida bo'lishi va konteynerlar ustida yurish man etiladi. Odamlarni konteyner yuklangan avtomobillarda yoki ularni konteynerlarda tashish qatiyan man etiladi.

Ekskavatorlarda yuklashda ekskavator strelkasi xarakatida avtomobil kabinasi ustida xarakatlanmasligiga avtomobil yuklashga to'g'ri qilib qo'yiladi. Odamlar jumladan xaydovchi ham 5 metrdan kam bo'lmagan masofada turib, kuzovga yuk bir-tekisda yuklanishini nazorat qilib turadi. Ekskavator ishlayotganda yukni tekislash man etiladi.

Avtomobillardan yuk tushirish uchun uni platformaga qo'yganda to'xtash tormozi, yoqilg'i baklaridagi probka qopqoqlari zich-germetik ravishda berkitilganligi tekshiriladi. Platformaga (ramaga) chiqishda tezlik 5 km/s dan oshmasligi lozim.

Avtomobil platformaga chiqqandan keyin uning turish qo'l tormoziga qo'yilib, odamlar xavfsiz masofada turishadi. Shundan keyin platforma ko'tariladi albatta orqa bort ochilgandan keyin. Bunday yuk tushiruvchilar-razgruzchiklar bug'doy, qum va shag'al tashishda qo'llaniladi. Bunday platformalar maxsulotni elevatorga qabul qilishda ishlatiladi.

Transportlar orqali qum, shag'al, don maxsulotlari, paxta yuklanishi mumkin. Bu jarayonlarda ham xaydovchi chetdan turib nazorat olib boradi.

Respublikada shaxsiy xaydovchilar tomonidan avariya va yo'l xarakat xodisalari ko'payib ketganligi hamda shaxsiy yo'lovchi tashuvchilarni faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 2007 yilda shu masalaga bag'ishlangan Prezidentimizning Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga bag'ishlangan ikkita farmoni e'lon qilindi va shu farmonlar asosida Vazirlar Maxkamasining qarorlari ham chiqarilgan. Qisqacha qilib aytganda shaxsiy tashuvchilar uyushmalariga birlashtirilib, ular tibbiy ko'rikdan, avtomobillari texnik nazoratdan o'tmoqdalar. Ularga yo'l varaqasi va nazorat chiptalari berilmoqda. Demak shaxsiy yo'lovchi tashuvchilarning faoliyatlarini endi nazorat qilib turish imkoniyati tug'ildi. Masalan: o'zining sog'lig'ini bilish, avtomobil sozligini bilish, ish va dam olish

rejimini nazorat qilish hamda olinayotgan daromadlarni aniqroq bo'lmasa ham belgilash imkoniyatlari tug'iladi.

Ushbu farmonlar va qarorlar albatta xaydovchi mehnatini, yo'lovchilarni hamda atrofdagilarni shikastlanishi – jabrlanishini kamaytiradi. Bu esa inson xayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda katta o'rin egallaydi. Xozirgi kunda yuk va yo'lovchilar tashishni shaxsiy, xususiy tashuvchilar bajarayotgani tufayli xaydovchilarni kamida ikki yilda bir marta xarakat va mehnat muxofazasi qoida va talablari asosida o'qitish lozim. Bu vazifani TAYI professor-o'qituvchilari bajarishlari mumkin.

Avtomobil transportida tashishlarda masofadan turib boshqarish jarayoni qo'llaniladi.

Shahar yo'lovchi transportini yo'nalishlarda boshqarish yo'nalishlar oxirida joylashgan dispetcherlik –nozimxonalar xodimlari tomonidan radio, telefon yoki ASDU qurilmalari orqali boshqarib boriladi. Radio-telefonlar yo'nalish brigadalarida yoki har bir avtobuslarda o'rnatilgan bo'lishi mumkin. yengil taksilar ishi ham mijozlar bilan ishlashda alohida ajratilgan radioto'lqinlar orqali nozimlar tomonidan boshqarilib boriladi Markaziy nozimxona xodimlari mijozlardan telefon orqali buyurtma qabul qilib olib yo'nalishdagi yengil taksi xaydovchilariga ko'rsatma beradi va bu xaqda mijozlarga ham tegishli axborotlarni yetkazadi. Shaharlararo, xalqaro tashishlarda ham radiotelefonlar yerning suniy yo'ldoshlari orqali xaydovchining xarakat faoliyati ustidan markazlashgan nozimxonalar xodimlari doimo aloqada bo'lib nazorat olib boradi. Agar xaydovchilar xarakat yoki dam olish rejimini buzsalar, ularga nisbatan har xil choralar ko'riladi yoki ular ishdan chetlatiladi. Bu va yuqoridagi tadbirlar mehnat muxofazasiga katta ta'sir qiladi.

4.2 Shovqin va titrashlardan ximoyalanishning asosiy tadbirlari.

Sanoat korxonalarida mashina va mexanizmlarning harakat natijasida har xil titrashlar vujudga keladi. Bu titrashglar ba'zi uchastkalarda bitta va ba'zi uchastkalarda bir necha mashina mexanizmlarning harakati ta'sirida bo'lib, ba'zan zo'rayishi va ba'zan susayishi kuzatiladi va bu organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Titrash hosil qiluvchi mashinalar orasida transport vositalari, katta hajmdagi qo'zg'olmas agregatlar, qo'lda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar mavjud.

Texnika taraqqiyoti natijasida zamonaviy mexanika-mashinasozlik korxonalarida turli tuman jihozlarning kirib kelishi, shuningdek bu mashinalarning unumdorligini oshirishga talabning kuchayganligi, mashinalarning iloji boricha kam material sarflab, qo'l bilan bajariladigan vazifalarni mexanizmlar zimmasiga yuklash natijalari insonga ta'sir etuvchi qo'shimcha hodisa, titrash hodisasini kelib chiqishiga olib keldi. Titrash sanoatda ishchining ish unumdorligini kamaytiribgina qolmasdan, balki uning sog'ligiga ham ta'sir ko'rsatishi va bu ta'sirning oldi vaqtliroq olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib kelishi aniqlandi. Shuning uchun ham titrashga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega.

Titrashning fizik xususiyatlari. «Titrash: atamalar va tushunchalar» da «titrash» deb nuqta yoki mexanik sistemaning, xech bo'lmaganda bitta koordinat

bo'ylab, vaqt birligida navbatma-navbat ortib va kamayib turuvchi harakatiga aytiladi.

Titrash mashina va mexanizm qismlaridagi kuchlarning nomuvofiqlik harakati natijasida kelib chiqadi. Bunga mexanizmlarning chiziqli harakatini aylanma haraktga aylantirishdagi krivoship-shatun mexanizmalirining harakati, silkituvchi harakat hosil qiluvchi shibbalash qurilmalari, shuningdek posangilashtirilmagan aylanma harakat qiluvchi qismlar, masalan qo`lda ishlatiladigan silliqlovchi mashinalar, dastgohlarning silliqlovchi va qirquvchi qismlaridan kelib chiqadigan titrashlar misol bo`la oladi.

Transport vositalaridan chiqayotgan tovushlar darajasining ruxsat etilgan chegaraviy qiymatlari (yeEK yevropa iqtisodiy komissiyasi qoidolari bo'yicha)

ATV turlari-kategoriyalari	Maksimal massasi-og'irligi, tn	Dvigatel quvvati, kVt(yeEK)	Tovush darajasi dBa
M ₁	cheklanmaydi	cheklanmaydi	74
M ₂ M ₃	3,5 tn ortganda	150 kam bo'lganda	78
		150 ortiq bo'lganda	80
N ₁	2tn va undan kami	cheklanmaydi	76
	2 tn , 3,5tn-gacha	cheklanmaydi	77
N ₂ N ₃	3,5tn ortganda	75 dan kam	77
		75-150 gacha	78
		150 dan ortiq bo'lganda	80

M1- 8 o'rindiqqacha (xaydovchidan tashqari) yengil avtomobillar .

M2,M3- 22 tagacha tikka yoki o'tirib ketuvchi yo'lovchilarga mo'ljallangan avtobuslar (shahar , shaharlararo turistik avtobuslar).

N₁-2tn-gacha yuk ko'taruvchi yuk avtomobillari.

N₂N₃-3,5tn ortiq yuk ko'taruvchi avtomobillar.

Shovqindan saqlanish. Hozirgi zamon texnika taraqqiyoti davrida sanoat korxonalarida shovqinga qarshi kurash masalalari muhim masalalar qatoriga kiradi.

Bu masala asosan mashinasozlik sanoatida transport vositalarini ishlatishda va eenergetika sanoatida juda jiddiy masala bo`lib turibdi.

Mashina va mexanizmlar shovqinini kamaytirish, detallarni tayerlanish sifatini oshirish, kam shovqin xosil kiluvchi materiallardan foydalanish, uzatmalarni tugri

tanlash, yeyilgan detallarni uz vaktida almashtirishdir Masalan, dumaloq podshipniklarini ishkalanish podshipniklariga almashtirish shovqin darajasini 10...15 dB ga, tugri tishli shesternyalarni shevronli shesternyalarga almashtirish – 10 ...12 dB ga, zanjirli uzatmalar urniga ponasimon tasmali uzatmalardan foydalanish – 10...15 dB ga, tishli uzatmalarni yig'ish sifatini oshirish – 5...10 dB

ga kamaytirishga imkon beradi. Bundan tashkari shovqin darajasini kamaytirishda aylanuvchi detallarni balanslash ham muhim rol uynaydi.

Shovqinning oqibatlari ma'lum. U birinchi navbatda ishlab-chiqarishda mehnat qilayotgan kishilarni ma'naviy toliqtiradi, shovqin chiqaruvchi mashinalarni ishlatayotgan ishchilar va ishlab chiqarish jarayonini boshqarayotgan operatorlar ishiga xalal berib, ularni har xil hatoliklarga yo'l qo'yishlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ishlab-chiqarish jarohatlanishlari kelib chiqishining asosiy manbai hisoblanadi. Katta shovqin ta'sirida insonning asab sistemalari zirqillaydi, eshitish organining susayishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham sanoat korxonalarida shovqinni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, inson salomatligini saqlashi bilan katta ahamiyat kashf etadi.


Shovqin haqida tushuncha. Odam uchun yoqimsiz har qanday tovushlar shovqin deb ataladi. Jismlarning bir-biriga urilishi, ishqalanishi va muvozanat holatining buzilishi natijasida hosil bo'lgan havoning elastik tebranishi harakati qattiq, suyuq va gazsimon muhitda to'lqin hosil qilib tarqaladi. Bunda muhit zarralari muvozanat holatiga nisbatan tebranish hosil qiladi. va bu tebranish tezligi to'lqinlar tarqalish tezligidan ancha kichkina bo'ladi.

4.3 Odamning ish qobiliyati va ishonchligiga ta'sir etuvchi ergonomik omillar

Ish faoliyati sifatini o'rganishdagi muhim tushuncha «ish qobiliyati» bo'lib, u odamning berilgan rejimlarda aniq ishni bajarish uchun potensial imkoniyatlarini ifodalaydi.

Odam organizmining ish qobiliyati keng diapazondagi ko'plab omillar ta'sirida o'zgaruvchi qiymatdir. Bunday omillardan biri-charchash.

Charchash - odam organizmining fiziologik holati, ish natijasida yuzaga keladi, ishlash qobiliyatini pasaytiradi; ob'ektiv nuqtai nazardan mehnat unumdorligi pasayishida, seb'ektiv – charchashni xis etishda namoyon bo'ladi. Odamning mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi ergonomik omillarning tasniflash variantlaridan biri quyidagi jadvalda korsatilgan.



Odam faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi ergonomic omillar tasnifi.

5. Umumiy xulosalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki Bitiruv malakaviy ishim bo'yicha bajargan barcha ishlarimiz kelajakda biz uchun asosiy poydevor xisoblanadi. Shunday ekan nafaqat avtomobil transporti sohasi balki boshqa sohalarda xam o'z faoliyatimizni a'lo darajada olib borishimiz uchun zarur bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishimini bajarishimda asosan quyidagi rejalar asosida tayyorladim.

Bitiruv malakaviy ishim ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi "MAN TGA 26.400 egarli tyagach yuk avtomobili asosida yarimtirkama o'zi ag'daruvchi avtopoyezdining tortish-tezlik va manyovrchanlik xususiyati"ni taxlil qilishga, ikkinchi qismi esa "yarim-tirkama o'zi ag'darish mexanizmini" loyixalash va uni mustaxkamlikka, xisoblashga baqishlangan. Nazariyadan ma'lumki xar qanday xususiyatlarni taxlil qilishda ularini o'lchov va ko'rsatkichlarini bilmasdan turib taxlil qilib bo'lmaydi. Shuning uchun avtomobilni tortishini baxolaydigan parametrlarini o'rganib chiqdim.

Tortish-tezlik xususiyatini baxolash ko'rsatkichlari asosan sinovchi va kuzatuvchini subektiv baxosi bilan baxolanadi. "Avtomobilning tortish-tezlik xususiyati" taxlil qilindi, ya'ni eng katta tezlikda xarakatlanganda ta'sir qiluvchi kuchlarni xisoblashdan iborat bo'ladi.

Shunga qaramasdan bitiruv malakaviy ishimda menga berilgan avtomobilning tortish-tezlik xususiyatini xisobladim va uning grafiklarini chizdim.

Konstruktorlik qismida "yarim-tirkama o'zi ag'darish mexanizmi"ni loyixalashini ko'rib chiqdim. Loyixalashdan oldin "yarim-tirkama o'zi ag'darish mexanizmi konstruksiyalari bilan tanishib chiqdim" yarim-tirkama o'zi ag'darish mexanizmini loyixasini bajarishimiz davomida berilgan konstruksiyani tuzilishi va ishlash jarayonini, unga tasir qiladigan kuch va momentlarni aniqlagan xolda konstruksiya detallarini mustaxkamlikka xisoblashdan iborat bo'ldi.

Ag'darish mexanizmidagi momentlarini aniqlash va ag'darilishni yetarli darajada ta'minlashini ko'rib chiqdik. Shu bilan birga gidroko'targichni ya'ni "gidroko'targichni xamda quvvat ajratish qurisini, nasosni, bakni va quvurlarini xisoblashdan iborat bo'ldi. Yangi avtomobillarni yaratishda ularning afzaliklari va mukamalliklarini baxolash uchun ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchi korxonalar uchun umuiy bo'lgan mezon va o'lchagichlardan foydalaniladi. Har qanday maxsulot uchun, shu jumladan avtomobil uchun xam asosiy mezon bo'lib, uning sifati xisoblanadi. Menga berilgan bitiruv malakaviy ishini elektron xolatida tayyorlashimdan asosiy maqsad berilgan konstruksiyani yaxshi o'rganibgina qolmay zamonaviy loyixalash dasturlarini ham o'zlashtirib, olgan bilimlarim asosida BMI chizmalarni AVTO CAD dasturida chizdim, xisob ishlarimni esa Excel dasturida bajardim. Xulosa qilib aytganda men bu BMI ni bajarish moboynda ustozlarimdan va turli adabiyotlardan o'z bilimimni yanada boyitib oldim.

6. Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent – “Ma'naviyat” – 2008-y. – 176-bet.

E. Fayzullayev “Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi.” – Toshkent – Toshkent – 2010-y.

A. S. Litvinov. “Автомобили. Теория эксплуатационных свойств” – Moskva – Mashinostroyeniye – 1989-y.

M. S. Vysotskiy, A. I. Grishkevich “АВТОМОБИЛИ. СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫЙ ПОДВИЖНОЙ СОСТАВ” – Minsk – “Высшая школа” – 1989-y. 97 – 140 betlar.

A. To'xtaev, Ya.P. Abramyan. Mashinasozlik chizmachiligidan spravochnik Toshkent, 2002.

V. A. O'rmonov, Q . Sidiqnazarov , A. Turg'unov “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” Toshkent-2012

K. I. Ibrohimov “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” fanidan ma'ruza matnlari to'plami. Toshkent – 2013-y.


A. A. Muxitdinov. “Bitiruv malakaviy ishini bajarishga uslubiy qo'llanma” Toshkent – TAYI – 2013-y.

A. A. Muxitdinov, O. Adilov va boshqalar «Avtomobilning ekspluatatsiyaviy xususiyatlar nazariyasi» o'quv qo'llanma. TAYI, 2013 y.- 148 b.

A. A. Muxitdinov, Sh.Xakimov “Transport vositalarining tuzilishi va nazariyasi” fanidan kurs ishiga uslubiy qo'llanma. TAYI, 2013 y.

Internet: ОАО “НовосибАРЗ” – www.NovosibARZ.ru Автомобили – самосвалы; Полуприцепы – самосвалы.

O'zi ag'daruvchilarni turli belgilariga ko'ra tasniflash.



Vazifasiga ko'ra.

O'zi ag'daruvchi.

Shassi turi bo'yicha.

—Derritsch.

Karyer.

Qishloq xo'jaligi

Platformani aq'darish
Yo'nalishi bo'yicha

Orqa tomonga.

Ikki yon tamanga.

Uch tamanga.

Yuk
avtomobili
shassisida.


Yarim
tirkama
shassisida.

Tirkama
Shassisida.

[illegible]

Yarım tirkama texnik tavsifnomasi

Yük ko'larish qobiliyati	31000 kg
Shaylangan yarim tarkatma massasi	8700 kg
Yarimirkamaning to'la massasi	39700 kg
jumladan, o'rindiq qurilmagida	12700 kg
- gidrak orqali yo'lga	27000 kg
Gidraklar soni	6-1 dona
Shina o'lchami	385/65R22.5
Kuzuvining ko'tarilish burchagi, max	52°
Harakatlanish tezligi, max	65 km/sol
Osma turi	ressorsizli muvozanatlovchi
Ischiki tormoz tizimi	prematik ikkiyulimali
O'zi a'g daruvchi kuzov	Half-Pipe, hajmi 31 m.kub.
Gidrojohaz	buriluvchi tentli
	Teleskopik gidrosilind-
	rimyalovchi gidraklapani,
	PENTA firmasi



Date: _____		Page: _____	
1	1. Name of the person: _____	2	2. Address: _____
3	3. Age: _____	4	4. Sex: _____
5	5. Date of birth: _____	6	6. Place of birth: _____
7	7. Nationality: _____	8	8. Religion: _____
9	9. Education: _____	10	10. Occupation: _____
11	11. Marital status: _____	12	12. Family members: _____
13	13. Health status: _____	14	14. Current residence: _____
15	15. Date of entry: _____	16	16. Signature: _____
17	17. Stamp: _____	18	18. Remarks: _____
19	19. Date of exit: _____	20	20. Signature: _____
21	21. Stamp: _____	22	22. Remarks: _____
23	23. Date of entry: _____	24	24. Signature: _____
25	25. Stamp: _____	26	26. Remarks: _____
27	27. Date of exit: _____	28	28. Signature: _____
29	29. Stamp: _____	30	30. Remarks: _____
31	31. Date of entry: _____	32	32. Signature: _____
33	33. Stamp: _____	34	34. Remarks: _____
35	35. Date of exit: _____	36	36. Signature: _____
37	37. Stamp: _____	38	38. Remarks: _____
39	39. Date of entry: _____	40	40. Signature: _____
41	41. Stamp: _____	42	42. Remarks: _____
43	43. Date of exit: _____	44	44. Signature: _____
45	45. Stamp: _____	46	46. Remarks: _____
47	47. Date of entry: _____	48	48. Signature: _____
49	49. Stamp: _____	50	50. Remarks: _____
51	51. Date of exit: _____	52	52. Signature: _____
53	53. Stamp: _____	54	54. Remarks: _____
55	55. Date of entry: _____	56	56. Signature: _____
57	57. Stamp: _____	58	58. Remarks: _____
59	59. Date of exit: _____	60	60. Signature: _____
61	61. Stamp: _____	62	62. Remarks: _____
63	63. Date of entry: _____	64	64. Signature: _____
65	65. Stamp: _____	66	66. Remarks: _____
67	67. Date of exit: _____	68	68. Signature: _____
69	69. Stamp: _____	70	70. Remarks: _____
71	71. Date of entry: _____	72	72. Signature: _____
73	73. Stamp: _____	74	74. Remarks: _____
75	75. Date of exit: _____	76	76. Signature: _____
77	77. Stamp: _____	78	78. Remarks: _____
79	79. Date of entry: _____	80	80. Signature: _____
81	81. Stamp: _____	82	82. Remarks: _____
83	83. Date of exit: _____	84	84. Signature: _____
85	85. Stamp: _____	86	86. Remarks: _____
87	87. Date of entry: _____	88	88. Signature: _____
89	89. Stamp: _____	90	90. Remarks: _____
91	91. Date of exit: _____	92	92. Signature: _____
93	93. Stamp: _____	94	94. Remarks: _____
95	95. Date of entry: _____	96	96. Signature: _____
97	97. Stamp: _____	98	98. Remarks: _____
99	99. Date of exit: _____	100	100. Signature: _____

[illegible]